YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 26-may, №19, 20 (8038)

KITOB O‘QIYDIGAN ODAM TERAN VA SOG‘LOM FIKRLAYDI. BUNDAY TAFAKKURGA EGA INSON ESA JAMIYATNI O‘ZGARTIRA OLADI.

Shavkat MIRZIYOYEV



DAVLATIMIZ RAHBARI MILLIY KITOBXONLIK HARAKATIGA START BERDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xalqaro kongress markazida O‘zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha umummilliy harakatga start berish marosimida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari bugun dunyo shiddat bilan o‘zgarayotgani, raqamli texnologiyalar, zamonaviy gadjetlar va sun’iy intellekt hayotimizga tobora chuqur kirib kelayotganini ta’kidladi. Bunday murakkab sharoitda insonning mustaqil fikrlay olishi eng katta ustunlik ekani qayd etildi.

– *Kitob o‘qiydigan odam teran va sog‘lom fikrlaydi. Bunday tafakkurga ega inson esa jamiyatni o‘zgartira oladi*, – dedi Prezident.

Ta’kidlanganidek, Yangi O‘zbekistonda mutolaa madaniyati va kitobga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. Kitobxonlik faqat ta’lim masalasi emas, balki millat kelajagi, xalqimizning ma’naviy qudrati va mamlakat raqobatbardoshligini ta’minlaydigan muhim omildir.

Davlatimiz rahbari ulug‘ ajdodlarimiz – Imom Buxoriy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek kabi mutafakkirlar insoniyat sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shganini qayd etdi. Ularning yuksak marralarga erishishida ilmga intilish va kitob mutolaasi asosiy manba bo‘lgan.

Shu ma’noda, mamlakatimiz xalqaro maydonda qudratli va yuksak salohiyatli xalq sifatida o‘zini namoyon etishi uchun ikki mustahkam asosga tayanishi zarurligi ta’kidlandi. Bular – bebaho ilmiy va ma’naviy merosimiz hamda zamonaviy ilm-fan va ilg‘or texnologiyalardir.

Prezidentimiz o‘z faoliyatining dastlabki kunlaridan yoshlarni kitobga oshno qilish, ularda bilimga mehr va rag‘bat uyg‘otishga ustuvor ahamiyat qaratib kelayotganini ta’kidladi. 2017-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” tanlovi millionlab yoshlarni kitobga yaqinlashtirdi. “Yosh kitobxon oila” tanlovi esa mutolaa muhitini har bir xonadonga olib kirishga xizmat qilmoqda.

Joriy yil boshida qabul qilingan qaror asosida eng faol kitobxonlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yildi. Kuni kecha “Yosh kitobxon” tanlovining navbatdagi respublika bosqichi yakunlandi. Unda mamlakatimizning barcha hududlaridan kelgan 42 nafar eng bilimdon va zukko yoshlar o‘z iqtidori va salohiyatini namoyon etdi. Tanlovning uch nafar g‘olibi Prezident sovg‘asi – zamonaviy avtomobillar bilan taqdirlandi.

Davlatimiz rahbari g‘oliblarni, ularning ustozlari va ota-onalarini samimiy tabriklab, bunday iqtidorli, izlanuvchan va bilimga chanqoq yoshlar Yangi O‘zbekistonning haqiqiy tayanchi ekanini ta’kidladi.

Marosimda kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribaga ham e’tibor qaratildi. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklarida 2015-yilda Shayx Muhammad bin Rashid Ol Maktum tashabbusi bilan boshlangan “Arab kitobxonlik tanlovi” dasturi bugungi kunda jahondagi eng yirik ma’rifiy harakatlardan biriga aylangani qayd etildi. Qisqa vaqt ichida ushbu tashabbus 200 milliondan ortiq o‘quvchini qamrab olgan.

O‘zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o‘rtasidagi yaqin do‘stlik va strategik sheriklik doirasida ushbu ezgu g‘oyani milliy ma’naviy merosimiz asosida yurtimizda yangi bosqichga olib chiqishga qaror qilindi.

Shu maqsadda “Milliy kitobxonlik harakati” dasturi boshlanmoqda. Davlatimiz rahbari kuni kecha ushbu dasturni davlat miqyosida faol qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida farmoyish imzolaganini qayd etdi.

Endilikda har yili mazkur tadbirning final bosqichi Prezident darajasida o‘tkaziladi. Dasturning umumiy yillik mukofot fondi **240 ming dollar**ni tashkil etadi. Bosh sovrin sohibi **50 ming dollar** bilan taqdirlanadi. Bu yurtimiz tarixida kitobxonlik bo‘yicha eng salmoqli mukofot bo‘ladi.

Mazkur harakat mamlakatimizning barcha hududlarini qamrab oladi. Unda umumta’lim maktablarining 1-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan o‘quvchilari ishtirok etishi mumkin.

Prezidentimiz ushbu tashabbus maktablar, oilalar va butun jamiyatda kitobxonlik muhitini kuchaytirish, yoshlar qalbida yangi bunyodkorlik ruhini uyg‘otishga xizmat qilishini ta’kidladi.

– *Men ushbu dasturni shunchaki kitob o‘qish musobaqasi emas, balki jonajon Vatanimiz kelajagi uchun strategik investitsiya deb bilaman. Agar biz bugun bolalarimizning qo‘liga yaxshi kitob bersak, ertaga ular Yangi O‘zbekistonning buyuk kelajagini barpo etishga, albatta, qodir bo‘ladilar*, – dedi davlatimiz rahbari.

Marosimda Prezidentimiz barcha o‘quvchi-yoshlar, ustozlar, ota-onalar va keng jamoatchilikni ushbu umummilliy harakatda faol ishtirok etishga chaqirdi.

Kitob o‘qigan, bilimga intilgan va ezgu ma’nolarni anglagan millat hech qachon yengilmasligi ta’kidlandi. “Ilmdan boshqa najot yo‘q” degan ma’rifatparvar ajdodlarimiz g‘oyasini butun mamlakat miqyosida hayotga tatbiq etish muhimligi qayd etildi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

BIZ O‘Z OLDIMIZGA QO‘YAYOTGAN BUYUK MAQSADLARNI AMALGA OSHIRISHDA BUTUN XALQIMIZ QATORI, BILIMLI, HUNARLI, TADBIRKOR VA VATANPARVAR, HAR TOMONLAMA YETUK YOSHLARIMIZGA TAYANAMIZ.

Shavkat MIRZIYOYEV



BEKOBODDA BILIM VA MUTOLAA BAYRAMI

Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, o‘quvchi-yoshlarning mutolaaga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning ma’naviy dunyoqarashi va tafakkurini boyitish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda yosh avlod qalbida kitobga mehr uyg‘otish maqsadida tumanimizda 2025-yilda **“Har maktabga – 100 kitob”** tashabbusi doirasida **60 ta** umumta’lim va **3 ta** xususiy maktablarga **20 ming**ta eng zamonaviy adabiyotlar sovg‘a qilindi. Natijada tumandagi maktab kutubxona fondlari 111 ming nusxadan oshib, o‘quvchilar uchun kitob fondidan foydalanish imkoniyati yanada kengaydi.

Ushbu kitoblarni maktablarga topshirish tadbirlari chinakam ma’rifat bayramiga aylanib ketdi. Chunki ushbu tadbirlar doirasida tumanimizga **500 nafar**dan ziyod akademik olimlar, taniqli shoir va yozuvchilar, jurnalistlar va san’atkorlar tashrif buyurishdi. Ular bilan ijodiy uchrashuvlar, davra suhbatlari, kitob taqdimotlari hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etildi.



Kitobxonlik muhitini xonadonlarga olib kirayotgan yana bir muhim harakat – “Yosh kitobxon oila” tanlovi birgina 2025-yil mavsumida 100 mingga yaqin yosh oilani jalb etgani bizni benihoya xursand qiladi. Chunki oilalarda kitob o‘qilishi – jamiyatning yutug‘idir.

Muhtaram Prezidentimizning ezgu maqsadlari ham aslida shu, ya’ni har bir oila kitobga do‘st bo‘lsin, unib-o‘sib kelayotgan farzandlarimiz kitob bilan birga ulg‘aysinlar, deb ta’kidlaydilar hamisha.

Ana shunday kitobxon oilada unib-o‘sayotgan singlimiz, Bekobod tumanidagi 42-maktabning 7-sinf o‘quvchisi Suvonqulova Odinaxon “Kitobxon-Kids” respublika tanlovida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Odinaning ushbu yutug‘i tumanda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda namuna bo‘ldi va uning xonadonida **5 000 ta** kitobdan iborat kutubxona tashkil etib berildi. Endi 14 yoshli qizchamizning uyida o‘z shaxsiy kutubxonasi bor.

Yana bir gapni faxr bilan ayta olamizki, bugungi kunda tumanning Bosh maydonida Bekobod markaziy kutubxonasini barpo etish ishlari boshlangan. Ushbu barcha sharoitlarga ega bo‘lgan zamonaviy ziyo maskani Mustaqiligimizning 35 yillik bayrami arafasida foydalanishga topshiriladi. Bunday zamonaviy kutubxonalar tumandagi barcha 51 ta mahallalarda ham tashkil etiladi.

Bu ezgu ishlarning mantiqiy davomi sifatida, 18 – 21-may kunlari Bekobod tumani yurtimizdagi eng nufuzli ma’naviy-ma’rifiy tanlovlardan biri — “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovining Respublika bosqichiga mezbonlik qildi.



Davlatimiz rahbarining besh muhim tashabbusi doirasida yoshlarni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida 2017-yildan buyon an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” tanlovida o‘tgan davr mobaynida 5 million nafardan ortiq yoshlar qamrab olinib, yuz minglab o‘g‘il-qizlarning mutolaaga bo‘lgan qiziqishi ortdi. Ayniqsa, tanlov g‘oliblarining Prezident sovg‘asi — avtomobillar bilan taqdirlanayotgani, shuningdek, davlat mukofotlariga sazovor bo‘layotgani ushbu loyiha nufuzini yanada oshirmoqda.

Tanlovning 2025-yilgi mavsumida ham yurtimizning barcha hududlaridan 950 ming nafarga yaqin yoshlar ishtirok etdi. Saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan 42 nafar finalchi 3 ta yosh toifasi — 10–14, 15–19 hamda 20–30 yosh yo‘nalishlarida o‘zaro bellashdilar. Respublika bosqichida ishtirokchilar “Badiiy asarlar bilimdoni”, “Tezkor savol-javob”, “Buyuk mutafakkir va adib”, “She’riyat” hamda “Kvest” kabi beshta shart asosida sinovdan o‘tkazildi.

Mazkur tanlovning yana bir muhim jihati shundaki, unda yoshlarning nafaqat o‘qigan asarlarini qay darajada o‘zlashtirgani, balki kitoblarda ilgari surilgan Vatanga muhabbat, oila va do‘stlarga sadoqat, komil inson fazilatlari haqidagi fikrlarga munosabati, mustaqil mushohada yuritish qobiliyatiga ham alohida e’tibor qaratiladi. Shu bois “Yosh kitobxon” tanlovi yoshlarni kitobxonlik orqali ma’naviy barkamollikka yetaklaydigan muhim maydon sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, final bosqichi Bekobod tumanida bo‘lib o‘tgan “Yosh kitobxon” tanlovi yoshlarning bilim va tafakkurini charxlash, ularni milliy hamda jahon adabiyotining sara namunalari bilan yaqindan tanishtirish, qalbida Vatanga muhabbat va ezgu insoniy fazilatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sarvinoz SHERALIYEVA



G‘alaba shukuhi

“YOSH KITOBXON” G‘OLIBLARIGA PREZIDENT SOVG‘ALARI TOPSHIRILDI!





Har qanday millatning buyukligi, avvalo, uning ilmga bo‘lgan munosabatida, kitobxonlik madaniyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Hech kimga sir emaski, bizning ulug‘ ajdodlarimiz – Al-Buxoriy, Imom Termiziy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek kabi yuzlab bobolarimiz dunyo sivilizatsiyasiga g‘oyat ulkan hissa qo‘shganlar.

Ularning har biri, kitob va ilm, izlanish ortidan bemisl shuhrat qozonganlar. Kitob va ilm orqali kelajak avlodlarga ulkan, boy ma’naviy meros qoldirganlar. Sohibqiron Amir Temur bobomiz: “Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning asosi. Hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir”, deb aytganlar.



Zamon har qancha rivojlanmasin, hech qachon kitobning qadr-qimmati tushmaydi, hayotimizdagi o‘rni yo‘qolmaydi. Kitobning jozibasi, u beradigan zakovat va tafakkur qiymati doimo baland bo‘ladi. Insoniyatga abadiy qanot va kuch-qudrat baxsh etadigan kitoblar hamisha mo‘jiza sifatida qadrli bo‘lib qolaveradi. Shu bois, muhtaram Prezidentimiz mamlakatimizda kitobxon millatni shakllantirishga qaratilgan, ayniqsa, yoshlarni mutolaaga chorlaydigan muhim tashabbuslarni hayotga tatbiq etib kelmoqdalar.

Xususan, “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila” kabi keng miqyosli tanlovlar, kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha imzolangan ko‘plab Farmon va qarorlar buning yaqqol misolidir.

Shuningdek, yaqinda qabul qilingan “O‘zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasida kitobxonlik masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanib, yoshlarni mutolaaga jalb etishning aniq mexanizmlari ishlab chiqildi. Eng muhimi, kitobxonlik harakati chekka va olis hududlardagi yoshlarni ham qamrab olmoqda, ularga ham kuchli motivatsiya bermoqda.

Kuni kecha final bosqichi Bekobod tumanida bo‘lib o‘tgan **“Yosh kitobxon”** tanlovi **2025-yilgi** mavsumida mutlaq g‘oliblikni qo‘lga kiritgan qahramonlarimizga “Prezident sovg‘asi” — **“BYD Chazor” elektromobillari** tantanali ravishda topshirildi!



O‘z yosh toifalarida tengsiz deb topilgan g‘oliblar:

10–14 yosh toifasida: Nosirova Farzona Nasimovna (Buxoro viloyati);

15–19 yosh toifasida: Abdug‘affarov Jasurbek Dunyomiddin o‘g‘li (Jizzax viloyati);

20–30 yosh toifasida: Diyorova Fazilat Mamasaid qizi (Surxondaryo viloyati).

Ushbu tarixiy g‘alaba bilan barcha g‘oliblarimizni, ularga doim tirgak bo‘lgan munis ota-onalari va zahmatkash ustozlarini chin dildan muborakbod etamiz. Ilm-ma’rifat yo‘lidagi yuksak parvozingiz bardavom bo‘lsin!

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, muhtaram Yurtboshimiz har gal kitobxonlik haqida so‘zlaganlarida, “Biz bugun bolalarimizning qo‘liga kitob bersak, ertaga ular mamlakatimizga buyuk kashfiyotlar va ulug‘vor ishlar tuhfa etadilar”, deb ta’kidlaydilar. Shubhasiz, kitob o‘qigan yoshlar keng fikrlaydi, dunyoda bo‘layotgan voqea-hodisalarni chuqur tahlil qila oladi.

Sun’iy intellekt, virtual va raqamli dunyo, ilg‘or texnologiyalar – bularning barchasida o‘z o‘rniga ega bo‘lishlari uchun bugungi yoshlarimiz chuqur ilm, keng tafakkur, ijodiy fikrlashlari zarur. Bularni esa, aziz yoshlarimizga faqat va faqat kitob bera oladi.

Lobar JUMABOYEVA

KITOB OLING

Otchopardan kimxob oling,
Ne bo‘lsa — behisob oling,
Ammo qaytar chog‘ingizda
Bittagina kitob oling.

O‘rikzordan koshin oling,
Sirg‘alidan moshin oling,
Jaholatning boshin oling,
Bittagina kitob oling.

Yuz ming turlik sharob — sizga,
Palov — sizga, kabob — sizga,
Oh chekurman qarab sizga,
Bittagina kitob oling!

Siz ulug‘siz qorin bilan,
Qazi-qarta, norin bilan,
Dilga ham bir azob oling,
Bittagina kitob oling.

Yeng shimarib “xo‘sh” degaysiz,
Osh-u, non-u go‘sht degaysiz.
Ma’rifat deb savob oling,
Bittagina kitob oling.

Do‘kon qiling, market qiling,
Uylarni ham parket qiling,
Siz ham bir iztirob oling —
Bittagina kitob oling.

Umr o‘tar — yelib qoling,
Yulib qoling, olib qoling,
Oqar suvdan xitob oling,
Bittagina kitob oling.

Kimlar qolar izingizda,
Tik qarolmay yuzingizga?
Avval o‘g‘il-qizingizga
Bittagina kitob oling.

Xudo xayringizni bersin,
Yana umringizni bersin,
Uyingizga oftob oling —
Bittagina kitob oling.

Sirojiddin SAYYID

HAR KUN QO‘LGA KITOBINGNI OL!

Bobolardan qolgan odat bu,
Ilm istar dilga qanot bu,
Og‘ir damda malham, najot bu,
Nondek aziz, qilmagin uvol,
Har kun qo‘lga kitobingni ol!

Mayli, bo‘lsin, Avesto, Qur’on,
Mudroq bosma, bolajon, uyg‘on,
Haqni senga ko‘rsatar har on,
Gar so‘zlarim kelmasa malol,
Har kun qo‘lga kitobingni ol!

Mayli, o‘qi, istasang tunda,
O‘rtog‘ingga aylansin kunda,
Muhammadning kalomi shunda,
Topay desang yorug‘lik, iqbol,
Har kun qo‘lga kitobingni ol!

Ilm otlig‘ front boshlandi,
Ilmsizlik ortga tashlandi,
Savodsizning ko‘zi yoshlandi,
Ko‘rmay desang musibat, zavol,
Har kun qo‘lga kitobingni ol!

Internetga aldanib qolma,
Quruq gapga sen quloq solma,
O‘qiyvergin, o‘qishdan tolma,
Yashay desang pokiza, halol,
Har kun qo‘lga kitobingni ol!

Kutar seni bilimlar intiq,
Fikring bo‘lar toza va tiniq,
Do‘sting bo‘lib qolishi aniq,
Chalg‘itmasin boshqa o‘y, xayol,
Har kun qo‘lga kitobingni ol!

Ashurali BOYMUROD

KITOBXONLIK OLAMI

KUTUBXONA — BILIM VA MA’NAVIYAT MARKAZI



Axborot-kutubxona markazi — bilim, ma’naviyat, madaniyat va jamiyatlararo aloqalarni mustahkamlovchi muhim institut hisoblanadi. Bekobod tuman axborot-kutubxona markazi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4354-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan tashkil etilgan.

Markazning umumiy fondi 42 409 ta kitob va boshqa axborot resurslarini o‘z ichiga oladi. Bu esa kutubxonani hududdagi boy fondga ega muassasalardan biriga aylantiradi. Hozirgi kunda kutubxonaga 23 000 nafar kitobxon a’zo bo‘lgan.

Kutubxona xodimlari aholi, xususan yoshlar va bolalarni kitobxonlikka keng jalb etish, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish maqsadida faol ish olib bormoqda. Ular o‘quvchilar uchun kitob tanlash bo‘yicha maslahatlar beradi, o‘quv va madaniy tadbirlar tashkil etadi hamda kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiluvchi loyihalarni amalga oshiradi.

“Yo‘l-yo‘lakay kitob o‘qiymiz”, “Ochiq osmon ostida kutubxona”, “Moviy jomadon”, “Topag‘on kitobxon”, “Siz bu adibni taniysizmi?”, “Oxirgi o‘qigan kitobingiz”, “Oilada kitobxonlik”, “Farzandimga kitob sovg‘a qilaman” kabi kitobxonlik tadbirlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, kutubxonada muhim sanalarga bag‘ishlab ma’naviy-ma’rifiy kechalar, davra suhbatlari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar hamda kitob ko‘rgazmalari muntazam tashkil etib kelinmoqda.

Kutubxonada yoshlar orasida adabiyot muhokamalarini rivojlantirish, fikr almashish va tanqidiy tafakkurni shakllantirish maqsadida “Ijodkor yoshlar klubi”, qisqa muddatda ko‘proq kitob o‘qishni rag‘batlantirish uchun “Kitob o‘qish poygasi”, bilimni sinashga qaratilgan tanlov va viktorinalar, shuningdek, internet va elektron resurslardan to‘g‘ri foydalanish hamda onlayn axborotni tekshirish bo‘yicha “Elektron va media savodxonlik” kurslari yo‘lga qo‘yilgan.

Axborot-kutubxona markazi tumandagi korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritib kelmoqda. Ko‘chma kutubxonalar tashkil etilib, kitoblar bilan ta’minlash ishlari amalga oshirilmoqda. Kutubxona maktab kutubxonalari uchun metodik markaz sifatida ham xizmat qilib, kutubxonachilarga uslubiy yordam ko‘rsatmoqda.

Tashkil etilganidan buyon Axborot-kutubxona markazi bir qator yutuqlarga erishdi. Jumladan, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan “Zukko kitobxon” tanlovida kutubxona xodimlari va kitobxonlar jamoasi munosib ishtirok etib, Toshkent viloyati bo‘yicha faxrli birinchi o‘rinni egallashdi. Shuningdek, markazga a’zo kitobxonlarimiz ham turli tanlov va loyihalarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Bugungi kunda Axborot-kutubxona markazi nafaqat kitoblar saqlanadigan maskan, balki axborotga erkin kirish, ta’lim va madaniyatni rivojlantirish markazi sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Bunday markazlar an’anaviy kutubxona xizmatlarini raqamli imkoniyatlar va jamoaviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirib, turli yosh va ijtimoiy guruhlarga kompleks xizmatlar ko‘rsatadi.

Axborot-kutubxona markazi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga bevosita hissa qo‘shadi. U ta’limiy resurslar orqali kasbiy rivojlanish, o‘quvchilar va talabalar uchun ilmiy tadqiqotlar olib borishga ko‘maklashadi.

Bugungi kunda markazda raqamlashtirish va onlayn xizmatlarni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Elektron kataloglar, elektron kitoblar, masofaviy foydalanish imkoniyatlari hamda mobil ilovalar kutubxonani keng auditoriyaga yanada yaqinlashtirmoqda.

Kutubxona xodimlari kitobxonlar ommasiga mas’uliyat bilan xizmat ko‘rsatib, tumanimizda kitobxonlar sonini oshirish, aholi, ayniqsa, yoshlarning kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishni o‘zlarining asosiy maqsadi deb biladilar.

Zarifa ESIRGAPOVA,
Bekobod tuman axborot-kutubxona markazi direktori, Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati

SAHIFALARDA ULG‘AYGAN ORZULAR



Bugungi tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan zamonda kitob mutolaasi insonning ma’naviy dunyosini boyituvchi eng muhim manbalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida kitobga bo‘lgan qiziqishning ortishi kelajakda bilimli va ma’rifatli avlod shakllanishiga zamin yaratadi. Shunday iqtidorli va kitobsevar o‘quvchilardan biri, “Yosh kitobxon” tanlovining 10-14 yosh toifasi bo‘yicha Respublika bosqichi ishtirokchisi Odinaxon Suvonqulova bilan suhbatimizni e’tiboringizga havola etamiz.

— Hamma ham kitobni yaxshi ko‘radi, ammo uni mutolaa qilishga vaqt va imkon topish biroz qiyin. Aytingchi, sizning ko‘p kitob mutolaa qilishingizga kim yoki nima sabab bo‘lgan?

— Meni kitob mutolaasiga qiziqtirgan inson — bu onam. Kichkinaligimdan meni kitob o‘qishga qiziqtirib tarbiya qilganlar. Onamning o‘zlari ham ko‘plab kitoblarni mutolaa qilgan va hozir ham o‘qib keladilar. Har bir kitobni o‘qib bo‘lgach, men bilan suhbat qiladilar, asar qahramonlari, syujeti va yozuvchining g‘oyasi haqida fikr almashamiz. Oxirida esa “ming marta eshitgandan, bir marta o‘qigan yaxshi” degan fikrga amal qilib, kitobni o‘qib chiqaman.

Bugungi kunda kitobni qog‘oz, elektron yoki audio shaklda topish oson. Imkoniyatlar keng, faqat bahona va chalg‘ituvchi omillarni chetga surish kerak. Kitobni chin dildan yaxshi ko‘rgan inson, albatta, vaqt ham, imkon ham topadi. Telefon va boshqa gadjetlarni esa to‘g‘ri yo‘naltirish orqali foydali manbaga aylantirish mumkin.

— Kitobxon bo‘lish uchun o‘zingiz yaratgan “oltin qoida” bormi?

— Kitobxon bo‘lish bu — kelajak uchun qilinadigan eng katta sarmoya.

— Barchaga birdek tavsiya qila oladigan top-10 kitoblaringiz qaysilar?

— Tavsiya qiladigan kitoblarim:

- O‘tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi”
- “Ikki karra ikki besh”
- Erix Mariya Remark asarlari
- Fotih Duman, “Men, bas qil, ey nafs”
- Imom Zarnujiy, “Ilm olish sirlari”
- Jeyms Klir, “Atom odatlar”
- Malkolm Gladuell, “Zukkolar va landavurlar”
- Robin Sharma, “O‘lsang kim yig‘laydi”
- Brayan Treysi, “Samaradorlikning 21 yo‘li”
- Fyodor Dostoyevskiy, “Jinoyat va jazo”
- O‘lmas Umarbekov, “Odam bo‘lish qiyin”

— O‘qigan qaysi kitobingiz orqali hayotingizda katta yoki muhim o‘zgarish qilgansiz?

— “Zukkolar va landavurlar” kitobi.

— O‘qigan kitoblaringizdagi qaysi qahramonga o‘xshashni istardingiz?

— Jyul Vernning “Dunyo bo‘ylab 80 kun” asaridagi Fileas Fog kabi bo‘lishni xohlardim.

— Qaysi janrdagi kitoblarni mutolaa qilish ko‘proq yoqadi?

— Detektiv, ilmiy-ommabop va shaxsiy rivojlanish janrlari.

— Qog‘oz kitobmi yoki elektron kitob (audio shaklchi)?

— Hammasi ham yaxshi, lekin qog‘oz kitob afzalroq.

— Kitobni qayerda, qay holatda yoki nima bilan o‘qishni yaxshi ko‘rasiz, ya’ni uzoq va maroqli mutolaaning siri nimada?

— Har joyda o‘qib ketaveraman, aniq bir sharoit shart emas. Uzoq va maroqli mutolaaning siri esa do‘stlar davrasida kitob mutolaa qilishdir.

— Oxirgi o‘qigan kitobingiz haqida taassurotingiz?

— Yaqinda O‘tkir Hoshimovning “Osmondan tushgan pul” hajviy hikoyalar to‘plamini o‘qib tugatdim. Unda achchiq, ammo hayotiy haqiqatlar yumor orqali yoritilgan.

— Kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lmoqchisiz?

— Hozircha aniq qarorim yo‘q, lekin ustoz bo‘lishni xohlayman.

— “Yosh kitobxon” tanlovining Respublika bosqichida birinchi marotaba ishtirok etgan bo‘lsangiz ham yomon natija ko‘rsatmadingiz. Hatto “Buyuk mutafakkir va adiblar asari bayoni” shartida eng yuqori ballni qo‘lga kiritdingiz. Tanlovdagi ishtirokingizdan ko‘nglingiz qanchalik to‘ldi?

— Albatta, ilk bor Respublika bosqichida qatnashish men uchun katta tajriba va mas’uliyat bo‘ldi. Kuchli bilimdonlar orasida munosib ishtirok etib, yuqori ball olganim meni juda quvontirdi. Eng asosiysi, bu tanlov orqali o‘zimni sinab ko‘rdim, yangi do‘stlar orttirdim va yanada ko‘proq kitob o‘qishga ilhom hamda kelasi yil g‘alabaga erishish uchun katta motivatsiya oldim.

— Birinchi o‘rin sohiblarini taqdirlash kuni davlatimiz Rahbari bilan bo‘lgan uchrashuv sizda qanday taassurot qoldirdi? Ushbu uchrashuvdan o‘zingiz uchun qanday xulosa qildingiz?

— Davlatimiz Rahbari bilan bo‘lgan uchrashuv men uchun juda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, Prezidentimizning yoshlar bilimli, ma’naviyatli va Vatanga foydali inson bo‘lib yetishishi haqidagi fikrlari meni yanada ruhlantirdi. Bu uchrashuvdan shuni xulosa qildimki, har qanday yutuq ortida tinimsiz mehnat, izlanish va kitobga muhabbat turadi. Yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, doimo o‘z ustimizda ishlashimiz kerakligini yanada chuqur his qildim.

— Suhbatimizni an’anaviy yakunlamoqchiman. Tengdoshlaringizga kitob o‘qish bo‘yicha tavsiya va maslahatlar bersangiz. Zero, sizga havas qilib, sizdan motivatsiya olib, kitobxonlar safi kengaysa.

— Kitob insonning eng yaqin do‘sti va eng ishonchli ustozidir. Tengdoshlarimga aytadigan eng katta tavsiyam — imkon qadar ko‘proq mutolaa qilishsin. Chunki kitob insonning fikrlash doirasini kengaytiradi, dunyoqarashini boyitadi va uni katta maqsadlar sari yetaklaydi. Avvaliga kitob o‘qish qiyin yoki zerikarli tuyilishi mumkin, lekin vaqt o‘tgan sari mutolaa hayotning ajralmas qismiga aylanadi. Eng muhimi, o‘zingizga yoqadigan kitobdan boshlang va har kuni hech bo‘lmasa bir necha sahifa o‘qishga odatlaning. Ishonamanki, bugun kitob bilan do‘stlashgan yoshlar ertaga jamiyatning eng bilimli va muvaffaqiyatli insonlariga aylanishadi.

Sarvinoz SHERALIYEVA suhbatlashdi.

Deputat minbari

ISLOHOTLAR TARAQQIYOTGA YETAKLAYDI



So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan islohotlar natijasida hamda davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan hokim va mahalliy Kengash vazifalari ajratilib, qonun bilan mustahkamlab qo‘yildi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va ularning taraqqiy etishi uchun nafaqat mahalliy ijro hokimiyati organlari, balki xalq deputatlari mahalliy Kengashlari ham birday mas’uldir. Qolaversa, hududlarni har tomonlama rivojlantirishda mahalliy Kengash deputatlarining o‘rni va tashabbuskorligi muhim ahamiyatga ega. Aholi muammolarini aniqlash, hududlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish hamda “Mahalla yettiligi” – Kengash – Senat” uch bo‘g‘inli hamkorlik tizimi samaradorligini yanada oshirish asosiy vazifalarimizdan biridir.

“Mahalla yettiligi” tizimi amaliyotga tatbiq etilgandan buyon deputatlar bilan hamkorlikda aholi muammolarini mahalla darajasida hal etish, deputat so‘rovlari va takliflari hamda yettilikning kollegial qarorlari asosida mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar tobora natija berib bormoqda. Bankir va soliq xodimlarining mahallaga bog‘lab berilishi esa har bir kichik imkoniyatni katta loyihaga aylantirib, yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini bermoqda.

Tuman hokimlari har chorakda tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi rejalar yuzasidan Kengashga hisobot berib bormoqda.

Bekobod tumani o‘zining serqirra tarixi, mehnatsevar aholisi va sermazmun hayoti bilan tanilgan. Ayni vaqtda muhtaram Prezidentimizning bekobodliklarga qilgan otalarcha g‘amxo‘rliklari va e’tiborlari tufayli tumanimiz uchun maxsus qaror qabul qilinib, xalqimizni yillar davomida qiynab kelayotgan muammolarga yechim topilmoqda. Bu esa, albatta, aholi kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ayniqsa, 64 ta ko‘p qavatli uylarda kanalizatsiya tizimining qurilishi aholining 42 yildan beri intiqib kutgan orzusi edi. Bundan tashqari, ko‘p yillar davomida tuman aholisini qiynab kelgan muammolardan yana biri — tuman hududini ikkiga ajratib turuvchi Sirdaryo daryosi ustiga ko‘prik qurish masalasi edi. Davlatimiz rahbarining chekka hududlarga qaratgan e’tiborlari tufayli xalqimizning uzoq yillik orzusi ro‘yobga chiqib, hududlarni bog‘lovchi katta ko‘prik qisqa muddatda qurilib foydalanishga topshirildi va 40 mingga yaqin aholining uzog‘i yaqin, og‘iri yengil bo‘ldi.

Bekobod tumani kundan kunga chiroy ochib, zamonaviy qiyofaga kirib bormoqda. Bugungi kunda tumanimiz qurilish va islohotlar maydoniga aylangan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, 20 dan ortiq ijtimoiy soha obyektlari, o‘nlab zamonaviy sport hamda bolalar maydonchalarining qurilishi tufayli yoshlarimizning bugungi kunga ishonchi va ertangi kunga umidi ortib bormoqda. Yangi Bekobod markaziy maydoni barpo etilib, unda “Xotira va jasorat” majmuasi hamda “Tuman tarixi muzeyi”ning uyg‘un tarzda qurilishi tuman markaziga ko‘rk bag‘ishlab, odamlar qalbiga g‘urur va iftixor hissini baxsh etmoqda.

Mahalla davlat bilan aholi o‘rtasida mustahkam va chinakam ko‘prik vazifasini bajaruvchi tuzilma hisoblanadi. Shu sababli aholining dard-u tashvishini eshitishda “mahalla yettiligi” va deputatlarga qulay sharoit yaratish maqsadida 23 ta yaroqsiz va ta’mirtalab holga kelib qolgan mahalla binolari o‘rnida qisqa fursatda yangi, zamonaviy, barcha shart-sharoitlarga ega binolar barpo etildi. Albatta, bunday binolar kuchli bilimga ega, tashabbuskor va zamon bilan hamnafas kadrlarga munosibdir.

Eng muhimi, bugungi kunda mahallalarni ishsizlik, kambag‘allik, ajrim va jinoyatdan xoli hududga aylantirish, aholining daromadlarini oshirish, bir so‘z bilan aytganda, tumanimizni har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyat va manbalar mavjud.

Aholi tomorqalaridan samarali foydalanishda bekobodlik dehqonlarga teng keladigani yo‘q. Masalan, Mallaboy, Nazarboy, Mustaqillik, Parchayuz, Pastki Kerayit mahallalarida issiqxonalardan unumli daromad olish yuqori darajada rivojlangan bo‘lsa, Saryuz, Ilg‘or, Qo‘rg‘on mahallalarida kartoshkachilik, Bog‘ishamol, Farhod, Beshyuz, Oltin Vodiy mahallalarida sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish, Xamza, Oqtepa, O‘zbekobod, Xonobod mahallalarida to‘qsonbosdi ekinlaridan daromad olish bo‘yicha o‘ziga xos dehqonchilik maktabi shakllangan.

Aholi yil davomida 2–3 marta hosil olib, munosib daromad topish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu jarayon nafaqat aholi turmushini yaxshilash, balki tuman iqtisodiyotini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, ko‘z o‘ngimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar xalqimizni shukronalik va xayrixohlik bilan yashashga chorlamoqda. Shuningdek, daxldorlik hissi har birimizning asosiy maqsad va burchimiz bo‘lib qoladi.

Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek: “Odamlarning yuragiga qo‘l solib, ularni rozi qilish siyosatimizning bosh maqsadidir”.

Yoqutxon MO‘MINOVA,
Xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashi raisi.

G‘alaba muborak

YOSH ISTE’DOD PARVOZI

Bekobod tumanidan yana bir iqtidorli yosh bilim egasi o‘zining yutuqlari bilan yurtimiz sharafini munosib tarzda yuksaltirmoqda.

2015-yilda tug‘ilgan Mamadaliyev Yorqinbek Bekobod tumanidagi 11-umumta’lim maktabining 4-“V” sinf o‘quvchisi bo‘lib, Dalvarzin MFY, Nurafshon ko‘chasi 23-uyda istiqomat qiladi. Uning muvaffaqiyatlari ortida ota-onasi — Mamadov Muhriddin hamda Mamatova Saidaning katta mehnati va e’tibori mujassam.

Yorqinbek 5 yoshidan buyon “Ziyo Nur” o‘quv markazida mental arifmetika yo‘nalishida tahsil olib kelmoqda. Uning tinimsiz mehnati, bilimga chanqoqligi va qat’iyati bugungi yutuqlariga mustahkam zamin yaratdi.

U 2025-yilning 4-oktyabr kuni O‘zbekiston chempionligini qo‘lga kiritib, Dubay shahrida bo‘lib o‘tadigan xalqaro musobaqaga yo‘llanma oldi. Keyinchalik Dubayda o‘tkazilgan nufuzli xalqaro bellashuvda “Super Champion” unvoniga sazovor bo‘lib, Boku shahrida o‘tkaziladigan navbatdagi xalqaro musobaqaga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

Joriy yilning 11–16-may kunlari Boku shahrida o‘tkazilgan xalqaro musobaqada esa faxrli 1-o‘rinni egallab, Turkiyaning Antaliya shahrida bo‘lib o‘tadigan xalqaro chempionatga yo‘llanma oldi.



Kuni kecha 11-maktabda yosh chempionni tantanali kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda ustozlar va o‘quvchilar Yorqinbekni samimiy tabriklab, kelgusidagi musobaqalarda ham ulkan zafarlar tiladilar.

Tantanali marosimda qahramonimiz o‘zining xalqaro musobaqalardagi taassurotlari, erishgan yutuqlari va kelajakdagi maqsadlari bilan o‘rtoqlashdi.

Yorqinbekning bu yutuqlari nafaqat uning oilasi va maktabi, balki butun Bekobod tumani uchun katta faxrdir. Yosh chempionga Antaliyada bo‘lib o‘tadigan navbatdagi musobaqada ham ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Jahongir NURMUHAMMEDOV



KELAJAK IJODKORI

Joriy yil 14-may kuni Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabida “NEW UZBEKISTAN MUSIC AND ART FEST–2026” xalqaro tanlov-festivalining fortepiano yo‘nalishi bo‘lib o‘tdi. Unda Bekobod tumanidagi 16-son bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchisi Primqulova Azizaxon munosib ishtirok etib, II darajali diplom bilan taqdirlandi.

Azizaxonning ushbu yutug‘i uning tinimsiz mehnati, san’atga bo‘lgan yuksak mehri, ustozlarining fidokorona sa’y-harakatlari hamda ota-onasi qo‘llab-quvvatlovining yorqin ifodasidir. Yosh iste’dod egasining kelgusidagi ijodiy faoliyatiga ulkan muvaffaqiyatlar, yangi zafarlar va ijodiy parvozlar tilab qolamiz.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, san’at va musiqa yo‘lida erishilayotgan har bir yutuq — Yangi O‘zbekiston yoshlarining iste’dodi, salohiyati va intilishlarini yaqqol namoyon etuvchi muhim qadamlardan biridir.

Shahnoza KAMOLOVA,
Bekobod tumani 16-son
bolalar musiqa va san’at maktabi direktori

MAHALLIY KENGASH FAOLIYATI



DOLZARB MASALALAR KO‘RILDI

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashining VII chaqiriq navbatdagi 27-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahalliy byudjet ijrosi, ekologiya, yoshlar siyosati hamda fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirishga oid qator muhim masalalar muhokama qilindi.

Sessiyada 2026-yilning I choragida “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” davlat dasturi ijrosi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlar ko‘rib chiqildi. Mazkur masalalar yuzasidan tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Eldor Imamov hisobot berdi.

Shuningdek, mahalliy byudjetning 2026-yil I chorakdagi ijrosi hamda “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish holati muhokama qilinib, bu boradagi mavjud masalalar yuzasidan tegishli vazifalar belgilandi.

Sessiya davomida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Qarshi shahri tajribasi asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Bu haqda Xalq qabulxonasi yetakchi mutaxassisi Gavhar Bekmurodova axborot berdi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, tumandagi ekologik holat, “Yashil makon” umummilliy loyihasi ijrosi hamda hududlarni ko‘kalamzorlashtirish masalalari ham sessiya kun tartibidan o‘rin oldi. Tegishli soha rahbarlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot va ma’lumotlar tinglandi.

Bundan tashqari, “Yoshlar daftari” jamg‘armasi hisobidan mablag‘ ajratish masalasi muhokama qilinib, deputat so‘rovlariga javob berish holati tahlil qilindi. Sessiyada Kengash huzuridagi ekspert guruhi tarkibi ham tasdiqlandi.

Sessiya yakunida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, aholi muammolarini tezkor hal qilish hamda davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini kuchaytirish yuzasidan mas’ullarga aniq topshiriqlar berildi.

Amalga oshirilayotgan ishlarning bosh maqsadi — samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, xalq bilan ochiq muloqotni mustahkamlash va aholi farovonligini ta’minlashdan iborat.

Akrom MAMADALIYEV

SAYYOR QABUL

SIZ KELMANG, BIZ BORAMIZ!



Kuni kecha Dalvarzin mahallasida navbatdagi sayyor qabul tashkil etildi. Ochiq va samimiy muloqotda Bekobod tumani hokimi, tuman prokurori, Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i, tuman soliq bo‘limi rahbari, Adliya bo‘limi hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Fuqarolar bilan yuzma-yuz uchrashuv davomida elektr tayanchlarini o‘rnatish va elektr tarmoqlarini yangilash, yo‘llarni ta’mirlash, ichimlik suvi ta’minoti, sog‘liqni tiklash, moddiy yordam ajratish, ishga joylashish, kredit hamda kadastr masalalariga oid murojaatlar tinglandi.

Murojaatlarning aksariyati joyida ijobiy hal etildi. Qo‘shimcha o‘rganish talab etilgan masalalar yuzasidan mas’ullarga aniq topshiriqlar berilib, ularning ijrosi qat’iy nazoratga olindi.

Inson qadri ustuvor bo‘lgan tizimda har bir murojaat doimo e’tiborda bo‘ladi.

Gavhar BEKMURODOVA

SEMINAR

MAVSUM MAS’ULIYATI

Bekobod tumanida 2026-yilgi g‘alla o‘rim-yig‘im mavsumiga tayyorgarlik ishlariga bag‘ishlangan seminar tashkil etildi.

To‘qqiz oy davomida katta mehnat va mashaqqat evaziga yetishtirilgan g‘alla hosilini yig‘ib olish mavsumi arafasida ushbu jarayonni uyushqoqlik bilan tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Qishloq xo‘jaligida muhim bosqich hisoblangan o‘rim-yig‘im mavsumini qisqa muddatlarda va sifatli yakunlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Seminar davomida hosilni nobudgarchiliksiz yig‘ib olish, ish jarayonlarini samarali hamda mavsumni yuqori saviyada tashkil etish yuzasidan mas’ullarga aniq vazifalar yuklatildi.

Shuningdek, g‘alla o‘rim-yig‘imiga jalb etiladigan texnikalarning tayyorgarlik holati, otryadlar faoliyati, ularning moddiy-texnik bazasi hamda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanganligi atroflicha o‘rganildi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mas’ullarning asosiy maqsadi — hosilni o‘z vaqtida, sifatli va yo‘qotishlarsiz yig‘ib olish orqali mavsumni yuqori natijalar bilan yakunlashdir.

Gulnoza ATAMURODOVA



XUSHXABAR



GO‘ZALLIK BAYRAMI

Shu kunlarda Andijon — Bobur shahri bayramona shukuhga burkanib, ilk bor davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Andijon viloyati hokimligi hamkorligida rangtasvir, haykaltaroshlik, fotorassomlik va grafika yo‘nalishlari bo‘yicha Respublika rassomlar festivali-tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur festivaldan ko‘zlangan asosiy maqsad tasviriy san’at ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning mashaqqatli mehnatini rag‘batlantirish, keng jamoatchilikka tanitish hamda milliy tasviriy san’atimiz yutuqlarini xalqaro miqyosda targ‘ib etishdan iborat bo‘ldi.

Festivalda o‘zbek zamonaviy fotosan’ati rivoji yo‘lida samarali ijod qilib kelayotgan bekobodlik serqirra ijodkor, taniqli fotorassom va jurnalist Sultonboy Dehqonov “Yangi O‘zbekiston” turkumidagi asarlari bilan ishtirok etdi.

Tanlovning yakuniy natijalariga ko‘ra, S.Dehqonov “Eng yaxshi fotorassom” nominatsiyasi g‘olibi deb topilib, maxsus diplom hamda pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Qahramonimizni ushbu yutug‘i bilan muborakbod etib, ularga kelgusidagi ijodiy faoliyatida ulkan zafarlar va yangi muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Matbuot xizmati

Yoshlar kuni

TASHABBUS VA TARAQQIYOT



2026-yil 24-fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlab o‘tkazilgan uchrashuvda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida Bekobod tumanida har hafta rahbarlar va yoshlar uchrashuvlarini tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan.

Navbatdagi ana shunday uchrashuv Bog‘ishamol mahallasida bo‘lib o‘tdi. Unda Saryuz, Turon hamda Beshyuz mahallalari yoshlari ham faol ishtirok etishdi. Tadbirda tuman hokimi hamda Davlat xavfsizlik xizmati rahbari ishtirok etib, yoshlar bilan ochiq, samimiy muloqot olib bordilar.

Uchrashuv davomida yoshlarning orzu-intilishlari, hayotiy maqsadlari hamda ularni qiynayotgan dolzarb masalalar tinglandi. Ayniqsa, yoshlar bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish hamda yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuvda ta’kidlanganidek, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Natijada yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan samarali va tizimli mexanizm shakllanib bormoqda.

Shuningdek, bilimli, keng dunyoqarashga ega, vatanparvar va tashabbuskor yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning eng muhim ustuvor vazifalaridan biri ekani qayd etildi. Yoshlar mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishga, ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallashga da’vat etildi.

Bunday ochiq muloqotlar islohotlarning hayotga chuqur kirib borishiga xizmat qilib, jamiyatda yangi tashabbus va yangilanishlar uchun mustahkam zamin yaratadi.

Akrom MAMADALIYEV

Targ‘ibot tadbiri



YO‘L QOIDASI — UMR FOYDASI

Bekobod tumani “Vatanparvar” tashkilotida 55-umumta’lim maktabining 10-sinf o‘quvchilari ishtirokida yo‘l harakati xavfsizligiga bag‘ishlangan muhim targ‘ibot tadbiri tashkil etildi.

Tadbir davomida Bekobod tumani Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshlig‘i Elyor Yigitaliyev hamda tashkilotning yo‘riqchi-uslubchilari o‘quvchilarga yo‘l harakati qoidalari, piyodalar va haydovchilarning majburiyatlari, shuningdek, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish choralari haqida batafsil tushuntirishlar berdilar.

Mutaxassislar o‘quvchilarga yo‘llarda ehtiyotkorlikni kuchaytirish, yo‘l belgilariga qat’iy rioya qilish hamda harakatlanish madaniyatini shakllantirish hayot xavfsizligining eng muhim omillaridan biri ekanini alohida ta’kidladilar.

Tadbir yakunida o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, mutaxassislardan amaliy tavsiyalar oldilar. Bu esa ularning yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirdi.

Akrom GAZIYEV

Yodda tuting!

Yong‘in — inson hayoti va sog‘lig‘i uchun eng xavfli ofatlardan biridir. Ko‘plab yong‘inlar insonlarning e’tiborsizligi yoki xavfsizlik qoidalariga amal qilmasligi oqibatida yuzaga keladi. Shuning uchun har bir fuqaro yong‘in xavfsizligi qoidalarini bilishi va ularga qat’iy rioya qilishi zarur.

YONG‘IN XAVFSIZLIGI – HAR BIR INSONNING BURCHI

Uyda elektr jihozlaridan foydalanishda ehtiyotkor bo‘lish, gaz uskunalarini doimiy nazorat qilish, bolalarni qarovsiz qoldirmaslik muhim omillardan hisoblanadi. Ish joylarida esa yong‘in o‘chirish vositalarining mavjudligi va ulardan foydalanishni bilish talab etiladi.

Yong‘inning oldini olish — uni o‘chirishdan ko‘ra osonroq va samaraliroqdir. Uy sharoitida sodir bo‘ladigan yong‘inlar ko‘pincha oddiy ehtiyotsizlik natijasida yuz beradi. Masalan, yoqilgan shamni qarovsiz qoldirish, nosoz elektr simlaridan foydalanish yoki gazni ochiq holda qoldirish xavf tug‘diradi.

Shuningdek, uyda yong‘in o‘chirgich (ognetushitel) saqlash va undan foydalanishni bilish ham muhimdir. Bolalarga yong‘in bilan o‘ynashning o‘ta xavfli ekanini tushuntirish ota-onalarning muhim vazifalaridan biridir. Oddiy xavfsizlik qoidalariga amal qilish orqali katta falokatlarning oldini olish mumkin.

Jamiyatda yong‘in xavfsizligi madaniyatini shakllantirish uzoq muddatli, ammo zarur jarayondir. Bu borada maktablar, oliy ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynaydi.

Aholi orasida targ‘ibot ishlarini olib borish, seminar va treninglar tashkil etish orqali fuqarolarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish mumkin. Har bir inson o‘z hayoti va atrofdagilar xavfsizligi uchun mas’ul ekanini chuqur anglab yetishi lozim.

O‘tkir YOQUBJONOV,
Bekobod tuman FVB FVPB
inspektori, leytenant



Xabardormisiz?!

HUQUQIY YORDAM TIZIMI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentyabrdagi 741-sonli “Aholiga huquqiy axborotni yetkazish va yuridik yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq “Madad” — muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti tashkil etilgan bo‘lib, 2019-yil 12-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Asosiy vazifalari:

- fuqarolarga huquqiy masalalar bo‘yicha, jumladan, onlayn maslahatlar va tushuntirishlar berish orqali birlamchi bepul yuridik yordam ko‘rsatish;
- fuqarolarning huquqiy bilimlarini ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda oshirib borish ishlariga ko‘ngillilarni jalb etish;
- fuqarolar tomonidan huquqiy maslahat berishga oid so‘rovlarni tahlil qilib borish, tahlil natijalariga ko‘ra huquqni qo‘llash amaliyoti hamda amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda innovatsion usullar hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini tatbiq etish;
- “Advice.uz” huquqiy axborot portalining muntazam yuritilishi va yangilab borilishini ta’minlash.

Nazir SULTONOV,
“Madad” – muassasa shaklidagi
nodavlat notijorat tashkiloti
Bekobod tumani bosh mutaxassisi

BEKOBOD YOSHLARI — KATTA MARRALAR SARI

Kelajak chempionlari

Bekobod tumanida “Prezident Olimpiadasi” hamda “Yangi O‘zbekiston Olimpiya cho‘qqilari” sport musobaqalarining tuman bosqichida g‘olib bo‘lgan yosh sportchilarga viloyat bosqichiga munosib tayyorgarlik ko‘rishlari uchun sport formalari topshirildi.



Mamlakatimizda sport sohasiga qaratilayotgan yuksak e’tibor natijasida yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda ularni xalqaro maydonlarga tayyorlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Har bir mahalladan chempion chiqishi kerak” degan ezgu g‘oya bugungi kunda yoshlar sportini rivojlantirishda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur sport musobaqalarining asosiy maqsadi — 2029-yilda O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan Yoshlar o‘rtasidagi Osiyo o‘yinlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish, eng chekka hududlardagi iste’dodli yoshlarni aniqlash hamda ularni professional sportga keng jalb etishdan iborat.

Ayniqsa, yosh avlodning jismoniy salohiyatini oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va xalqaro maydonlarda yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘taradigan sportchilarni tarbiyalashda ushbu musobaqalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Viloyat bosqichida Bekobod tumani sharafini sportning 13 turi bo‘yicha 200 nafardan ortiq iqtidorli yosh sportchilar himoya qiladi. Ularning har biri bugungi kunda katta ishonch, yuksak maqsad va g‘alabaga bo‘lgan qat’iyat bilan musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rmoqda.

Ishonamizki, Bekobod yoshlari viloyat bosqichida ham yuqori natijalarni qayd etib, Respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritadilar hamda tumanimiz sha’nini munosib himoya qiladilar.

Jahongir SULTONOV,
Bekobod tuman Sport maktabi
yo‘riqchi-uslubchisi

Bilim manbai



KITOB – QALB OFTOBI

Yurtimizda kitobxonlikni targ‘ib qilish, yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitish maqsadida tashkil etilayotgan ma’rifiy tadbirlar tobora keng quloch yozmoqda. Ana shunday bilim va tafakkurga boy tadbirlardan biri tumanimizdagi 50-umumta’lim maktabining 2-sinf o‘quvchilari ishtirokida “Kitobim — oftobim” shiori ostida bo‘lib o‘tdi.

Kitob bilan do‘stlashgan insonning yo‘li doimo yorug‘ bo‘ladi. Zero, mutolaa qalbga nur, tafakkurga esa kuch bag‘ishlaydi. Mazkur bellashuvda ishtirokchilar nafaqat o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazdilar, balki kitobxonlik madaniyatining yuksak namunalarini ham namoyon etdilar.

Tadbirning tezkor savol-javob shartida o‘quvchilarning kitob mazmuni hamda qahramonlar haqidagi bilimlari va chaqqonligi sinovdan o‘tkazildi.

Ijodiy yondashuv bahsida esa o‘quvchilar sevimli asarlaridan parchalar o‘qib, sahna ko‘rinishlari orqali asar g‘oyasini mahorat bilan ochib berdilar.

“Kitobga yordam” nomli o‘yin-musobaqa davomida o‘quvchilarning kitobni asrash, uni ozoda va e’tibor bilan saqlash haqidagi tushunchalari yanada boyitildi.

“Kitobim — oftobim” bellashuvi shunchaki musobaqa emas, balki haqiqiy ma’naviyat bayramiga aylandi. Zero, kitobga muhabbat bor joyda taraqqiyot, yuksak ma’naviyat va porloq kelajak bo‘ladi.

Tadbir yakunida so‘zga chiqqanlar bunday ma’rifiy tadbirlar yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish hamda ularni kitobga oshno etishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidladilar.

Gulmira RO‘ZIYEVA,
Bekobod tumani
50-umumta’lim maktabining
1-toifali boshlang‘ich
sinf o‘qituvchisi

Pedagog minbari

HARBIY HAYOTGA SAYOHAT



Bekobod tumani 48-umumta’lim maktabi o‘quvchilari hamda “Vatan tayanchi” harakati a’zolari uchun Guliston harbiy prokurori tashabbusi bilan ochiq eshiklar kuni doirasida ma’naviy-ma’rifiy sayohat uyushtirildi.

Mazkur sayohat yoshlarning harbiy-vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, ularda Vatanga sadoqat, yurt tinchligi va osoyishtaligiga daxldorlik tuyg‘ularini kuchaytirish maqsadida tashkil etildi.

Dastlab, o‘quvchi-yoshlar Guliston harbiy prokuraturasi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. U yerda harbiy prokuratura tizimining vazifalari, qonun ustuvorligini ta’minlashdagi o‘rni hamda xodimlarning mas’uliyatli faoliyati haqida batafsil ma’lumotlar berildi.

Shundan so‘ng sayohatchilar Milliy gvardiyaning Guliston shahridagi o‘quv markaziga tashrif buyurdilar. U yerda yoshlar harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan sharoitlar, askarlar kundalik hayoti va xizmat jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar. Ayniqsa, askarlar oshxonasida harbiylar bilan birgalikda tushlik qilish o‘quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Tadbirning eng qiziqarli qismi “Rahbar bilan uchrashuv” muloqoti bo‘ldi. Unda Sirdaryo viloyati Yoshlar ishlari agentligi rahbari, Guliston harbiy prokurori hamda Milliy gvardiya harbiy qismi qo‘mondonlari ishtirok etdilar. Ochiq va samimiy ruhda o‘tgan uchrashuv davomida o‘quvchi-yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldilar.

Iqboloy ERTABOYEVA,
Bekobod tumani
48-umumta’lim maktabi
ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha
direktor o‘rinbosari

Ta’lim fidoyilari

USTOZGA EHTIROM

Har bir insonning muvaffaqiyatga erishishida, komil inson sifatida shakllanishida ustozning o‘rni beqiyosdir. Ustoz nafaqat ta’lim beradi, balki shogirdlariga o‘z farzandidek mehr ko‘rsatib, ularning yorqin kelajagi uchun tinmay mehnat qiladi.

Mening ham abituriyentlik davrimda shunday jonkuyar ustozim bo‘lgan. Mahfuza Yunusaliyeva 30 yillik pedagogik tajribaga ega fidoyi ustozlardan biridir. Bugungi kunga qadar 1400 nafardan ortiq shogirdlari oliy ta’lim muassasalari talabasi bo‘lish baxtiga muyassar bo‘lgan. Ustoz ta’lim sohasidagi samarali faoliyati va sidqidildan qilgan xizmatlari uchun “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Mahfuza ustoz men uchun shunchaki o‘qituvchi emas, balki ikkinchi onamdek insondir. Ayniqsa, ona tili fanidan milliy sertifikatga tayyorgarlik jarayonida tushunmagan savollarim bo‘lsa, ustoz istalgan paytda — hatto tungi soat 02:00 da yoki sahar 05:00 da ham qisqa fursatda javob berardilar. Ana shunday paytlarda ustozning iroda, mas’uliyat va mehnatsevarligiga qoyil qolardim.

Rostini aytsam, avval badiiy adabiyotga unchalik qiziqmas edim. Ammo Mahfuza ustozning ilhomi va motivatsiyasi tufayli o‘zbek adabiyotining ko‘plab durdona asarlarini katta qiziqish bilan mutolaa qildim. Jumladan, “Avlodlar dovoni”, “Dunyoning ishlari”, “O‘tkan kunlar” hamda “Otamdan qolgan dalalar” kabi asarlarni tunlari uxlamay tahlil qilardim.

Men Bekobod shahrida yashardim, ustoz esa Bekobod tumanida istiqomat qilardilar. Shunga qaramay, ustozga bo‘lgan hurmatim va ixlosim shu qadar baland ediki, masofa men uchun umuman ahamiyatsiz edi. Har kuni ertalab soat 06:30 da ustozning uyiga borar, keyin esa ular bilan birga dars o‘tadigan o‘quv markaziga yo‘l olardim. Yo‘l davomida ustoz menga hayotiy saboqlar berib, kelajakdagi kasbiy faoliyatim uchun muhim maslahatlarini aytardilar.

Shuningdek, ustoz bilan ko‘proq shug‘ullanish maqsadida kechki payt ham ularning xususiy maktabidagi ona tili darslariga qatnardim. Charchoq va toliqishga qaramay, ustozdan oladigan bilimim menga kuch bag‘ishlar edi.

Oxir-oqibat, mashaqqatli mehnat o‘z samarasini berdi. Men ham Mahfuza ustozning boshqa shogirdlari qatori milliy sertifikatni muvaffaqiyatli qo‘lga kiritdim.

Mahfuza ustozga bo‘lgan mehrimni ko‘rib, ba’zan oyijonim meni ustozimdan qizg‘onar edilar. Bu esa bizning munosabatimiz oddiy repetitor va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqa emas, balki o‘zaro hurmat va qadriyatlarga asoslangan haqiqiy ustoz-shogirdlik rishtasi ekanini ko‘rsatadi.

Men doimo o‘zimga shunday deyman: “Agar yana abituriyent bo‘lib qolganimda ham, hech ikkilanmasdan Mahfuza ustozda o‘qir edim”.

Xulosa qilib aytganda, inson katta maqsadlarni ko‘zlar ekan, albatta, o‘zi ixlos qilgan ustozdan ta’lim olishi kerak. Zero, to‘g‘ri yo‘naltirilgan ilm va tarbiya har qanday muvaffaqiyatning asosidir.

Jo‘rabek URUNBOYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti 1-bosqich
talabasi

Bolalar adabiyoti: “Dunyo daholari”

MOTSART

Eng avval sifatdan maza qilasiz, keyin matnning ravonligidan, keyin rasmlardan.

120 betlik kitobning hech bir sahifasida o‘quvchi-bola zerikib qolmaydi. Voqealar rivojining shiddati, yoqimli dizayn va o‘ziga tortadigan rasmlar bunga yo‘l bermaydi.

Kitobda Motsartning tug‘ilishidan tortib bugungi qadr-qimmatigacha yozilgan. Ammo matn shunday osonki, musiqa dahosining butun hayotini bola xuddi onasidan eshitgandek yoki kimdir qiziq va shiddatli qilib aytib bergandek bo‘ladi.

Asaxiyning “Dunyo daholari” seriyali kitobidan birinchi bo‘lib “Musiqa dahosi”ni o‘qib chiqdim. Kitob 7–13 yoshli bolalar uchun bo‘lsa-da, men ham uning ichiga rosmanasiga kirib ketibman.


Bilasizmi, qachondir bu bola ulg‘ayganida, hatto keksayganida ham bolaligini eslaganda mana shu kitobni, uni o‘qigandagi hislarini, albatta, eslaydi.

Bu yoshdagi bolalar uchun juda yaxshi yo‘l ko‘rsatuvchi, yuksak marralarni ko‘zlashdan, katta orzular qilishdan qo‘rqmaydigan va bir kuni o‘zi ham dahoga aylanishiga ishonch beradigan kitob bo‘libdi.

Uni, albatta, farzandingizga, jiyanlaringizga sovg‘a qiling. Men ham bu kitobni qizcham Oynur o‘zi o‘qiy oladigan bo‘lgunicha avaylab olib qo‘yaman.



STIV JOBS



Dadasining ustaxonasidan chiqmaydigan, nimadirlarni buzib-tuzatib yuradigan o‘ziga xos xarakterli bu bolakay dunyoni o‘zgartirib yuborishni maqsad qilgan.

Bunday katta da’vo, albatta, o‘qib-izlanish, harakat va hech qachon ortga qaytmaslikni talab qiladi. Sizningcha, shaxsiy kompyuterni yaratgan, Apple asoschisi Stiv Jobs buni uddaladimi?

“Dunyo daholari” ruknidagi to‘rtinchi kitobni o‘qib, bir narsaga qattiq amin bo‘lyapman. Daholarning boshqalarga o‘xshamagan g‘alati xarakteri, injiqligi, qaysarligi, o‘jarligi, xayolparastligi va boshqalari bo‘lar ekan.

Ehtimol, biz ham farzandlarimizni boshqa bolalardan ajratib turadigan o‘zgachaligini yo‘nib-taroshlamasligimiz, qolipga solmasligimiz kerakdir. Aynan mana shu xarakter uni maqsadiga olib borar, dunyoni o‘zgartira olishiga sabab bo‘lar.

Texnikaga, kompyuterga, nimadirlarni buzib yasashga va umuman tinib-tinchimaydigan har qaysi bolajonga chin dildan tavsiya qilaman bu kitobni.



ALBERT EYNSHTEYN

“Dunyo daholari” ruknidan Albert Eynshteyn haqidagi kitobni o‘qishga ayniqsa shoshildim.

Balki Eynshteyn va daho so‘zlari allaqachon sinonimga aylanib bo‘lgani yoki olimning telba sifatida tarqalgan nomi va umuman, o‘ziga xos mashhurligi bunga sabab bo‘lgandir.


Bolaligidanoq boshqalardan ajralib turgan, sokin, skripka chalishni yoqtiradigan yigitcha qanday qilib dunyoning eng mashhur dahosiga aylandi?


Bo‘lajak olimning ilm olishga bo‘lgan ishtiyoqi, shijoati, kelajak haqidagi o‘y-fikrlari kitobni o‘qiyotgan har qanday bolani, eng avval, katta maqsadlarga ilhomlantiradi.

Kitob koinot va sayyoralarga, fizikaga qiziqadigan bolalar uchun ham ideal sovg‘a bo‘lgan.

Eynshteyn ikkita jahon urushini ko‘rgan, qirg‘inbarot davrda ham faqat ilm-fan uchun yashashda davom etgan, o‘zini qaysidir davlat yoki millatga emas, butun insoniyatga daxldor ekanini aytishdan qo‘rqmagan olim.


Shuning uchun ham Eynshteyn haqida bolalar uchun sodda tilda taqdim etilgan bu kitob, albatta, farzandingiz qo‘lida bo‘lishi, o‘qilishi kerak deb o‘ylayman.





LEONARDO DA VINCHI

“Dunyo daholari” ruknidagi kitoblar meni hayratlantirishda davom etyapti. Shu kungacha da Vinchini faqat buyuk rassom sifatida bilar ekanman. Kitobni o‘qigach esa har doim hamma narsaga qiziqaveradigan, ichida yangi g‘oyalar va fikrlar qaynab turgan, kelajak ixtirolarini shundoq ko‘rib, his qilib turgan, haqiqatda o‘z zamonasidan ilgarilab ketgan butunlay boshqa bir odamni kashf qildim.



Vinchi juda ko‘p katta asarlarini chala qoldirgan ekan. Tasavvurida yakunlab, o‘z ijodidan rohatlanib bo‘lgach, amalda tugatishgacha sabri yetmay qolar, boshqa qiziqishlariga o‘tib ketar ekan. Ajoyib-a?

Bu kitob 7 yoshdan katta bolalar uchun eng sevimli kitoblardan biriga aylanishi aniq. Da Vinchining qiziqishlari, hech qachon to‘xtab qolmasligi, odamlar tasavvur qila olmaydigan narsalarni orzu qila olishi har qanday bolani o‘qish va izlanishga ilhomlantiradi.

Aytgancha, kitob yakunida Vinchining g‘aroyib masallari ham bor. Ularni o‘qib, buyuk dahoga yana ham yaqinlashgandek bo‘lasiz.

“Zamonasidan ilgarilab ketgan aql sohibi” kitobi Asaxiy yozganidek, “o‘qish oson, unutish qiyin” kitob bo‘libdi. Sifat va jamoaning ishga jiddiy qaraganidan ham maza qilasiz. Agar shu yoshdagi farzandingiz yoki jiyaningiz bo‘lsa, bu kitobni unga tezroq sovg‘a qilishingizni, birgalikda o‘qishingizni istardim. Kitobdan keyin, albatta, boladagi katta o‘zgarishni, qalbida uyg‘ongan uchqunni sezasiz.

Kitobdan olgan hislarimni, u bera oladigan narsalarni bitta kichik matn orqali yozishim qiyin. Shunchaki uni farzandingiz bilan o‘qing va ulkan orzularingiz ummonida birgalikda suzing.

Munisa AZAMOVA

SATRLARGA SINGGAN TUYG‘ULAR



Nazira BOYMURODOVA

Joriy yilning 7-mart tongida muhtaram Prezidentimizning adabiyot va she’riyat yo‘nalishida Zulfiya mukofoti sovrindori, qashqadaryolik shoira Latofat Amirovaga ikki xonali uy sovg‘a qilganlarini eshitib, juda xursand bo‘ldim. Xuddi o‘zim uy olgandek ilhomlanib, ushbu she’rni yozdim.

VATAN DEDIM, LABBAY, DEDI YURAGIM

Vatan dedim, labbay, dedi yuragim,
Xizmatiga men shay, dedi yuragim.
Yaraldik-ku, tuprog‘idan shu yurtning,
Qayga desa, boray, dedi yuragim.

Vatan faqat osmon bilan yer emas,
Vatan faqat Amu yoki Sir emas.
Hech bir vatan bu tuproqqa teng emas,
Kimlar unga zor-ay, dedi yuragim.

Dunyo kezdim, vatanimni sog‘indim,
Onam deya quchog‘iga talpindim.
Men sog‘insam, faqat uni sog‘indim,
Usiz menga dunyo tor-ay, yuragim.

Kelgin qalbim, vatan uchun jo‘shaylik,
Iqboliga hissamizni qo‘shaylik.
Parchasimiz shu tuproqning, shubhasiz,
O‘sar bo‘lsak, shu vatanda o‘saylik.

2026-yil, 7-mart — 2-aprel kunlari yozildi.

VATAN SENI KUYLAYVERAMAN

Gul bog‘laring bo‘ylayveraman,
Sen haqingda o‘ylayveraman.
Kim ne desa desin-ku, mayli,
Vatan, seni kuylayveraman.

Sening menday parvonang bor-mu?
Sening menday devonang bor-mu?
Sening menday mastonang bor-mu?,
Mening senday yagonam bor-mu?

Seni sensiz qolganlar bilar.
Hasratingda yonganlar bilar.
Yetolmayin gul jamolingga,
O‘lmay turib o‘lganlar bilar.

Vatan, seni kuylayveraman,
She’rga solib so‘ylayveraman.
Sen qalbimda ochilgan g‘uncha,
Yuragimda asrayveraman.

2025-yil, 14-mart
Anqara/Kuzeykent

HAYOTIMIZ SUG‘UR KUNIDAY

Umrimiz yillarga bo‘lib tashlangan,
Yillar taqvimlarga ilib tashlangan.
Taqdir chizig‘idan chiqa olmaymiz,
Chiziqlar manglayga chizib tashlangan.

Na ortga qaytamiz, na kelajakka,
O‘tmish-la bog‘imiz uzib tashlangan.
Ba’zan hayotimiz sug‘ur kuniday,
Umrimiz kunlarga tizib tashlangan.

Ertaning bag‘rida bugun topilmas,
Bugun ham aslida har kun topilmas.
Kechagina diydorlashgan do‘stlarim,
Omonat ekanlar, har kun topilmas.

Ba’zi qurollarga sig‘maydi ko‘ngil,
U derki: barchasin uzib tashlayman.
Ba’zan ko‘ngil uchun yashamoq kerak,
Hayot qonunlarin buzib tashlayman.

2026-yil, 13-fevral Qoratosh

SHOGIRDLARNING TOG‘I EDI, MAHMUD SA’DIY

Shogirdlarning tog‘i edi, Mahmud Sa’diy,
“Ma’rifat”ning bog‘i edi, Mahmud Sa’diy.
Bu dunyoda kitoblar va shogirdlarga
Doim joni fido edi, Mahmud Sa’diy.

Aytganiga o‘zi amal qilar edi,
Lavfsizlikni xiyonat deb bilar edi.
Xushlamasdi ko‘p gapirish, ezmalikni,
Bir gapirsa, hamma jimib qolar edi.

Olim degan unvoni yo‘q, ammo olim,
Ham donishmand, zakiyligi elga ma’lum.
Bor boyligi kitoblari, fikrlari,
Dunyolarga tarqab ketgan shogirdlari.

Mahmud Sa’diy ana shunday odam edi,
Odam emas, aslida bir olam edi.
Koinotni sig‘dirgandi manglayiga,
Kitob bilan bosishgandir tanglayiga.

Kecha bor-u, bugun yo‘qdir oramizda,
Ba’zan qo‘msab, tentiraymiz xonamizda.
Yetim qolgan qo‘zilarday javdiraymiz,
To‘rt tomondan biz Sa’diyni qidiramiz.

Ustozingdan ayrilmoqlik yomon ekan,
Undan ko‘ra dard chekmoqlik oson ekan.
“Olim o‘lsa, olam o‘lar”, derlar edi,
Ustozlarsiz qolgan dunyo yolg‘on ekan.

2026-yil, 8-dekabr, Sergeli-1

HAYRONA

Menim menga o‘xshamas,
Kimman o‘zi, yo falak?
Boshimda chapak chalar
Taqdir nomli charxpalak.

Qah-qah urar tinmayin,
Qasdi bormi yo mendan?
Dam uraman o‘zimga,
Dam “Ixlos”, dam “Yosin”dan.

Ko‘ksim urar gursillab,
Eshitilar ovozi.
Yo Rab, qaysi bandangni
Qilgan edim norozi?

Uni desam yonyapti,
Charsillab chor tomonim.
Yaxshim yo‘q undan bo‘lak,
Ham o‘zi eng yomonim.

Yuragiga yo‘l qayda,
Qalov qayda ko‘ngliga?
Bir zumda devonaga
Aylantirib qo‘ydi-ya?!

Qandoq go‘zal bu og‘riq,
Go‘zal dardning lazzati.
Yerda emas oyog‘im,
Holatim bir g‘alati.

Meni menga qaytarar
Kuning bormi, yorijon?
Va yo mangulik qadar
Qo‘lingdami manim jon?

Bilsang, azoblaringdan
Sabr-kosam to‘lyapti.
Tushun, meni oshiqmas,
Ma’shuq bo‘lgim kelyapti…

* * *

Chitti gulim, chitti gul,
Yuragimdek mitti gul.
Yorga “sevdim”, degandim,
Parvo qilmay ketdi, gul.

Ko‘nglim — ochil dasturxon:
Yorga sochdim borini.
Ul berahm yorijon
Qo‘ymadi ozorini.

Unga bordi — o‘ynadi,
Bunga bordi — o‘ynadi.
Yuragimni o‘yinchoq
Qila-qila to‘ymadi.

Yuragim o‘tin bo‘ldi,
Fig‘onim tutun bo‘ldi.
Lek dard bergan Xudojon,
Sabrimni metin qildi.

Chitti gulim, chitti-yo,
Yor jonimdan o‘tdi-yo.
O‘z-o‘zimga so‘z berdim:
Endi qilmayman parvo!

Aylandi yor, aylandi,
Ketmoqlikka shaylandi.
“Qozig‘i” mahkam ekan,
Qayta kelib boylandi.

Chitti gulim, chitti gul,
Diydor oni yetdi, gul.
Yorginamga erishdim,
Endi dardim bitdi, gul.



Sitora TOSHMATOVA

XALQONA

Mahallamiz yo‘llari
Juda tor-ey, juda tor.
Ko‘chamdan har kun o‘tgan
Shu yigitda ko‘nglim bor.

Bezori, yomon yigit,
G‘ururi osmon yigit.
Asakasi ketarmi
Boqsa biz tomon yigit?!

Sezaman, meni ko‘rsa,
Duk-duk urar yuragi.
O‘zi meni ko‘rish-chun
Har kun o‘tsa keragov!

Mahallamiz yo‘llari,
Juda tor-ey, juda tor.
Bilaman, shu yigitning
Aniq menda ko‘ngli bor…

Chang-to‘zon, tor ko‘chalar,
Zo‘r hushtakzor ko‘chalar.
Oynam tagida kimdir
Qo‘shiq aytar kechalar.

O‘sha “kimdir” kimligin
Bilishimni bilmaydi.
Sahargacha qo‘shiq ham,
Hushtaklar ham tinmaydi.

Kunlar o‘tib, vaqt o‘tib,
Qilib qolar dil izhor.
Ahdiga sodiq qolsa,
Yori bo‘lay vafodor.

Mahallamiz yo‘llari,
Juda tor-ey, juda tor.
Shu tor ko‘chada hali
Yangraydi qo‘shiq, yor-yor.



Doniyorbek ERGASHEV

XOTIRA AZIZDIR, MUQADDAS HAR DAM

Xotira azizdir, muqaddas har dam,
Ajdodlar ruhlari singadi unda.
Qancha xotirlasak, shuncha bo‘lar kam,
Ularning yodlari mangudir bunda.

Yashamoqdamiz, tinchlik bilan biz
Askarlar kurashgan bu kunlar uchun,
Yoddan chiqarmanglar do‘stlar buni siz
Xotira aslida yorug‘ bir uchqun.

Asrasak bobolar, momolar yodin,
Xalq uchun kurashgan qahramonlarni,
Xotirlab adiblar go‘zal ijodin,
Yurt uchun jon bergan pahlavonlarni.

Urushning o‘chmasdir qonli izlari,
Mardlarcha xalqimiz jangda kurashdi.
Qirildi o‘zbeklar urush kezlari,
Omon qolish uchun rosa tirmashdi.

Vatanim, tinch va mustaqil hozir,
Sababchidir bunda botir yigitlar.
Qancha esga olsak shunchalik ozdir,
Ulardan qolgandir bizga o‘gitlar.

Xotira azizdir, muqaddas har dam,
Ajdodlar ruhlari yotadi unda.
Kamdir ularni qancha xotirlasak ham,
Ularning yodlari mangudir bizda!

***

Vatanim mustaqil, erkim o‘zimda,
Qonimda oqmoqda jadidlar qoni,
Dilimda hayajon, quvonch ko‘zimda,
Hotirjam bu yerda insonning joni.

Bunga erishish hech oson bo‘lmagan,
Bunda to‘kilmagan kimlarning qoni,
Ota-bobolarimiz bekor o‘lmagan,
Bunda fido bo‘lgan ko‘plarning joni.

Sho‘rolar davrida Vatanimizni
Toptashgan, yanchishgan, yakson qilishgan.
Olmoq istagida o‘z erkimizni
Bizni bir malayga aylantirishgan.

Bunga rozi bo‘lmay Qodiriy bobom
Yozgandir o‘z “O‘tgan kunlari”ni.
Bunga qo‘shilishib Avloniy bobom
Ochgandir jadidlar maktablarini.

“Buzilgan o‘lkaga” maktublar yo‘llab,
Ozod Vatan uchun kurashgan Cho‘lpon.
Har doim bir-birin har yerda qo‘llab,
Jadidlar o‘zbekni uyg‘otgan har on.

Xalqim mustaqildir, erkim o‘zimda,
Qonimda oqmoqda jadidlar qoni,
Dilimda hayajon, quvonch ko‘zimda,
Hotirjam bu yerda insonning joni.

SO‘NGGI QO‘NG‘IROQ

ORZULAR SARI YANGI QADAM!



Bekobod tumanidagi barcha umumta’lim maktablarida “So‘nggi qo‘ng‘iroq” bayram tadbirlari “Yuksak ma’rifatli avlod — Uchinchi Renessans poydevori” shiori ostida ko‘tarinki ruh, quvonch va unutilmas lahzalarga boy tarzda o‘tkazildi.

Maktab hovlilarida jaranglagan so‘nggi qo‘ng‘iroq sadolari minglab o‘quvchilar qalbida hayajon, quvonch va biroz sog‘inch uyg‘otdi. Oq libosdagi bitiruvchi qizlar, yelkasiga orzu va maqsadlarini ortgan yigitlar uchun bugungi kun bolalikning eng beg‘ubor damlari bilan xayrlashib, katta hayot sari dadil qadam qo‘yilayotgan unutilmas tarixiy lahzaga aylandi.

Tadbirlar davomida davlatimiz rahbarining bitiruvchi yoshlarga yo‘llagan samimiy tabrigi o‘qib eshittirildi. Unda yosh avlodga bo‘lgan yuksak ishonch, ilm-fan va ma’rifat orqali Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga hissa qo‘shishdek ulkan mas’uliyat alohida ta’kidlandi.

Shuningdek, Bekobod tumani hokimi 35-umumta’lim maktabida bo‘lib, bitiruvchilarning “So‘nggi qo‘ng‘iroq” tantanasida ishtirok etdi hamda yoshlarga ezgu tilaklarini bildirdi. Tadbir davomida o‘qishda, sportda, fan olimpiadalari va turli tanlovlarda yuqori natijalarga erishgan faol o‘quvchilar e’tirof etildi.

Bayram dasturlarida kuy-qo‘shiqlar, raqslar, sahna ko‘rinishlari va dil izhorlariga boy chiqishlar namoyish etilib, ustozlarga bo‘lgan cheksiz minnatdorlik tuyg‘ulari samimiy so‘zlarda aks etdi. Ayniqsa, ota-onalar va ustozlarning ko‘zidagi faxr hamda hayajon bugungi kunning eng ta’sirli lahzalaridan bo‘ldi.

Bugun maktab bilan xayrlashayotgan bitiruvchilarimiz — Yangi O‘zbekistonning bilimli, tashabbuskor, fidoyi va vatanparvar avlodi sifatida yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shishiga ishonamiz. Zero, ular qalbida jo‘sh urayotgan ezgu orzular, Vatanga muhabbat va yuksak maqsadlar kelajagimiz poydevorini yanada mustahkamlaydi.

Aziz bitiruvchilar!

Sizlarga ulkan zafarlar, yorqin kelajak, mustahkam iroda va orzular sari dadil qadamlar tilaymiz! Yo‘lingiz doimo ochiq, qalbingizdagi ishonch esa bardavom bo‘lsin!

Jahongir NURMUHAMMEDOV

“O‘TGAN ASR HIKOYALARI” TURKUMIDAN

ASFALTGA YOZILGAN SHE’R

Yoshlikning eng esda qolarli, zavqli va baxtiyor damlari maktabni bitirish, so‘nggi imtihonlar davri bo‘lar ekan. Sinf rahbarlarimiz bizlarga “bitiruv” oldidan turli yumushlar berar, biz esa ularni g‘urur bilan, maktabimizga bizdan esdalik bo‘lib qoladigan darajada bajarishga harakat qilardik.

Esimda, yigirma besh nafar o‘g‘il-qizga yuklatilgan sinf xonasini ta’mirlash, sinfimizga biriktirilgan yer maydonini yumshatish, daraxtlarni oqlash kabi vazifalarni zavq va qoniqish bilan bajarardik. Albatta, o‘zaro pul yig‘ib, maktabga va sinf rahbarimizga esdalik sovg‘alari olib, “bitiruv kechasi”ga tayyorgarlik ko‘rardik. Qizlar shoyi matolar olib, ora-kunda tikuvchilarning uyiga qatnar, biz yigitlar esa ohorli oq ko‘ylaklar va urf bo‘lgan yoshlar bo‘yinbog‘larini sotib olib, uni bog‘lashni akalarimizdan o‘rganardik.

Shunday kunlarning birida maktabga kelsak, kimdir sinfimizga biriktirilgan hududdagi asfaltga ohak bilan “A+J=S” deb yirik harflarda yozib ketibdi. Sinfimizda bir emas, uch nafar ismi “A” bilan boshlanuvchi yigit va ikki nafar ismi “J” bilan boshlanadigan qiz bor edi.

Ana endi o‘sha kungi sinfdagi to‘polonni ko‘ring. Ayniqsa, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan Abdurashid bilan sevgi desa labiga uchuq toshadigan Jumagulga qiyin bo‘ldi. Gap-so‘z, qochirim, hazil-huzul bilan o‘sha kunni ham o‘tkazdik.

Ertasi kuni maktabga kelib, qay ko‘z bilan ko‘raylikki, asfalt harflarning “arifmetik yig‘indisi”ga to‘lib ketgan edi: “N+M=S”, “M+Sh=S”, “H+J=S” va hokazo. Sinfimizda birorta ham ismining bosh harfi yozilmagan o‘g‘il-qiz qolmagan edi. Yana to‘polon bo‘ldi, yana aybdorlar qidirildi, “husnixat” ijodkorlari tergov qilindi.

O‘sha kuniyoq maktab direktoridan jazo “hukmi” chiqdi: bunday “san’at asari”ni yozgan ham, yozmagan ham — xullas, sinfning barcha o‘quvchilari qo‘llariga chelak, shvabra va supurgi olib, tushgacha asfalt yuvdik. Ayniqsa, ismlari asfaltga “muhrlangan” qizlarimizdan rosa eshitadiganimizni eshitdik: “Afting qursin”dan tortib “Qo‘llaring akashak bo‘lsin”gacha bo‘lgan o‘zbek tilining noyob iboralari maktabni bitirib ketgunimizcha quloqlarimizda aks-sado berib yurdi.

Lekin hayotning yozilmagan o‘z qoidalari bo‘lar ekan. Maktab bilan xayrlashish onlari yaqinlashgan sari qalblarimizni ilgari his qilmagan tuyg‘ular va hayajonlar tamoman chulg‘ab olgandi. Biz esa bundan sarmast va masrur edik.

Ba’zan ustozlar va ota-onalarimizning koyishlari ham bizga tabiiy hol bo‘lib tuyulardi. Kechalari imtihonlarga tayyorlanish bahonasida tong otguncha bir-birimiznikida jamoa bo‘lib “dars qilardik”.

Sinfimizda Odina ismli chiroyli, o‘qishda ham, odobda ham hamma havas qiladigan qiz bor edi. Unga birvarakayiga to‘rt sinfdosh oshiq edi. Bir-birimiz bilan xufyona raqiblashib ham yurardik. Bular — kimyo fanini yaxshi bilgani uchun “Mendeleyev” laqabini olgan Ibrohim, maktabdagi eng ko‘zga ko‘ringan tug‘ma matematik Saidmirzo, doktor bo‘laman deb doim oq ko‘ylak kiyib yuradigan Shoqosim va oz-moz she’r yozib qizlarning “nazari”ga tushgan kamina.

Qizig‘i shunda ediki, kim Odinaga yoqmoqchi bo‘lsa, o‘z “hunar”ini ko‘rsatardi. Ibrohim kimyo fanidan o‘quvchilarga to‘garak mashg‘ulotlari o‘tar, Saidmirzo olimpiadalarda g‘olib bo‘lib, maqtov ustiga maqtov olar, Shoqosim esa qachon tibbiy ko‘rik bo‘lsa, maktabimiz hamshirasi Shohista opaning sumkasini ko‘tarib g‘oz yurardi.

Qiziqqonligim tutdimi yoki tomirimda “bitiruvchilik qoni” jo‘sh urdimi, men ham ikki misra she’r yozdim-da, sinf xonamiz derazasini bo‘yagan bo‘yoqni olib, maktab binosining orqa poydevoriga ushbuni yozib qo‘ydim:

“Xayr maktab, ona maskanim,
Xayr, Odina, sevgilim manim!”

Jazo olsak, biryo‘la olaylik dedimda, she’rning muallifligiga uchov raqibimni ham sherik qilib, she’r ostiga “I.S.Sh.N.” deb yozib qo‘ydim.

Ertangi kunimiz ikki misra she’rning shov-shuvi bilan boshlandi. Odina yig‘ladi. Qizlar uning yig‘isiga havas qilishdi. Sinf rahbarimiz to‘rt oshiq yigitga “tarbiyaviy soat” o‘tdi. Qolgan yigitlar esa bizga havas bilan qarashdi. Uchov raqibim menga “g‘ing” deyishmadi. Chunki men ularning dilidagini devorga ko‘chirgan edim.

U paytlar bitiruv kechalari o‘tkazilar, kecha esa “tong kutish” an’anasi bilan yakunlanardi. Hamma bitiruvchilar qishlog‘imiz chetidagi anhorga chiqib, oqarib kelayotgan tongni — baxtimiz tongini, boshlanayotgan mustaqil hayot tongini kutganmiz.

Lekin soat tungi o‘n ikkidan oshganda Odinani akasi kelib, uni bitiruv kechasidan olib ketgan...

Maktabni bitirib, uchirma bo‘lgan qushlarday har tomonga tarqab ketdik. Odina bizdan to‘rt yosh katta, muhandis bo‘lgan maktabdoshimizga turmushga chiqdi.

Shu bilan bolalik ham tugadi.

Nurali JALIL

MAKTAB XOTIRASI



Eshniyoz hoji BURXONOV

SO‘NGGI QO‘NG‘IROQ

Jaranglab, chorlagan edi qo‘ng‘iroq,
Chin dildan qunt qilib bilim olishga.
Bugun endi bizni kuzatmoqdadir —
Mustaqil hayotga, jo‘shqin turmushga.
Dilni entiktirar so‘nggi qo‘ng‘iroq.

“Alifbe” ushladim ilk bor qo‘limga,
Qalbim jo‘shib, tashna bo‘lib bilimga.
Bolalik chog‘larim tushar esimga,
O‘xshab juda noyob tilsimga.
O‘ylarga toldirar so‘nggi qo‘ng‘iroq.

Qo‘ng‘iroq bongiga tashna edi qalb,
Kechikmay kelardik har kun ertalab.
Esimda, har bitta harfni bittalab,
O‘qiganim ilk bor, arang hijjalab.
Zavqlarga to‘ldirar so‘nggi qo‘ng‘iroq.

Tashna edik ilm olishga chin dildan,
O‘rgandik ilm-odobni sidqidildan.
Ko‘z oldimdan ketmas yoshlik muttasil,
Ushbu kun jaranglab, bizni mustaqil,
Hayot sari chorlar so‘nggi qo‘ng‘iroq.

Yodga tushar yoshlik — ajib pallalar,
Sinfdoshlar bilan kechgan lahzalar.
Ustozlarning bergan nasihatlari,
Tarbiyaviy darsning qizg‘in vaqtlari.
Hushyorlikka undar so‘nggi qo‘ng‘iroq.

Bugun hamma xursand, chehralar gulgun,
Ustozlar yuzida tabassum butun.
Ota-onalarning qalbida uchqun,
Jaranglab ertangi porloq kun uchun,
Zafarlarga chorlar so‘nggi qo‘ng‘iroq.

XAYR ENDI MAKTABIM

Xayr endi muqaddas, tabarruk maktab,
Yuksak orzu dilda keng qanot yozar.
Kuzatishar bizni ko‘p oq yo‘l tilab,
Ota-ona kabi aziz ustozlar.

Ko‘z oldimdan o‘tar qutlug‘ dargohga,
Entikib ilk bora qadam qo‘yganim.
Ustozlar o‘giti, yangi o‘rtoqlar,
Saboqlardan ilk bor lazzat tuyganim.

Bag‘ringga chorlading, aziz maktabim,
Porlab chiqqan yorqin oftob singari.
Ko‘z oldimdan ketmas butun umrga,
Ustozlarning bergan pand-o‘gitlari.

“Alifbe”dan boshlab barcha fanlardan,
Saboqlar o‘rganib, dars o‘qib tugal,
Qutlug‘ dargoh, seni bitirmoqdaman,
O‘tilgan fanlarni o‘qib mukammal.

Sezmay qoldim, shuncha ko‘p yillar o‘tib,
O‘smirlik davrim ham o‘sib-ulg‘ayib.
Mustaqil hayotga kuzata turib,
Tabarruk dargoh ham turar mung‘ayib.

Ilm o‘rgandik tashna inson singari,
Biz senda — bilimlar koshonasida.
Endi kutar hayot imtihonlari,
Mustaqil hayotning ostonasida.

Xayr endi maktabim, bizni kuzatar,
Ustozlar tilashib yaxshi tilaklar.
Kutar bizni ko‘plab ezgu niyatlar,
Yuksak orzularga to‘la yuraklar.

Hikoya

KITOB O‘G‘RISI

– Dadasi, turing, tomda kimdir yuribdi, – onam dadamni turtdi. – Tirqishdan fonarning yorug‘i tushdi. Turing, erinmang. O‘g‘ri bo‘lmasin tag‘in.

Dadam shoshilmay to‘nini yelkasiga oldi-yu, chiqib ketdi. Yoshligimda o‘g‘ri haqida eshitsam, o‘takam yorilardi. Mening tasavvurimga niqob kiygan, bahaybat, qo‘rqinchli nusxa kelaverardi. Dadamni o‘ldirib qo‘yadi, deb rosa qo‘rqdim. Uyg‘oqligimni hech kim sezmadi.

Dahlizning eshigi ochilib, dadam kirib keldi:

– Qochib ketdi. Tepada qo‘lga ilinadigan hech narsa yo‘q. Ertalab ko‘ramiz. Olsayam, to‘rtta kitobdan boshqa nimani olardi.

Bir narsani o‘ylardim: otam kuchlimi yoki o‘g‘ri? Dadam gavdali odam bo‘lsa-da, o‘g‘ri kuchliroq tuyulardi nazarimda.

Birozdan so‘ng dimog‘imga shirchoyning hidi urildi. “Uyg‘onishga” iymanib turgandim, “Turing endi, o‘g‘lim”, degan yo‘g‘on ovoz eshitildi. Shunday ohangda aytildiki, uyg‘oqligimni bilib turgandek. Men ham anoyi emas, uyqusirab boshimni ko‘tardim…

– Tur, Zokirjon, yuzingni yuvib kel, shirchoy ichasan, – dedi oyim.

– Men bilan birga chiqing… – dedim.

Dadam qo‘rqoqligimdan kulib qo‘ya qoldi.

Har doimgidek ro‘zani tong otguncha tutdim... Ertalab akam bilan choy ichdik. Akam mendan uch yosh katta. U hech nimadan qo‘rqmaydi. Doim tarafimni oladi. Faqat men bilan o‘ynashni uncha xush ko‘ravermaydi.

– Aka, dadam bugun tomda o‘g‘rini quvib ushlay dedilar.

Xuddi ko‘rganday qilib aytganim uchunmi, akam chippa-chin ishondi. Ikkalamiz bugun yana o‘g‘ri kelsa, uni ushlaydigan bo‘ldik. Akam kuni bilan tuzoq tayyorladi. Sichqon tutadigan qopqonni qayerga qo‘yishni bilmay, ovoramiz chiqdi. Axiyri, kitob to‘la ikkita yashikning yaqiniga qo‘ydik. Chunki u yerda boshqa arzigulik narsa yo‘q edi-da.

Kun botmay, hayajonga tusha boshladim. Qopqon o‘g‘rining oyog‘idan tutsa, sichqonga o‘xshab og‘zidan qon kelishini tasavvur qilardim. Iftorlik vaqti bo‘ldi.

– Dada, o‘g‘ri o‘lib qolsa, qayerga ko‘mamiz? – deb so‘radim dadamdan.

– Qopqoningizga tushsa, uni qo‘lga o‘rgatib olamiz. U o‘lmaydi, – dedilar.

Akam bilan ikki kun o‘g‘rini kutdik. Kelmadi.

Yarim kechasi uyg‘onib ketdim. Eshik ochilib, kimdir tashqariga kitob bilan chiqib ketdi. Shovqinni eshitib, hammamiz hovliga chiqdik. Akamning ortidan qolmay, men ham narvonga yopishdim. Tomning bir tomoni yopiq bo‘lgani uchun dadam o‘g‘rini tutib olgandi. Biz esa oldindan tayyorlab qo‘ygan kaltakni olib, yordamga bordik.

Dadam o‘g‘riga fonarni tutdi. Men uni tanidim! Bizdan ikkita hovli narida turadigan Ma’mura garangning akasi. Men Ma’mura bilan maktabda o‘qiyman. Birga o‘ynardik. Doim “Mening akam olim”, deb maqtanardi. Endi ko‘rsam, “Akang o‘g‘ri”, deyman.

– Ha, Qodirboy, tinchlikmi? – dadam qandaydir yumshoqlik bilan so‘radi.

– ...

– Nima gap, gapiraver, tortinma.

Yanada yumshoqroq gapirdilar. Ko‘rgan odam o‘g‘riga emas, o‘g‘liga gapirayapti, deb o‘ylardi.

– Rustam aka… manavi kitoblar kerak edi. Anchadan beri kitoblaringizni olaman. Lekin o‘lay agar, o‘qiganlarimning hammasini qaytarib kelardim. Ikki kun oldin ham olgandim, mana, qaytarib keldim, – deb kitob to‘la yashikning yonidagi uch-to‘rtta kitobga ishora qildi.

Dadam uni diqqat bilan tinglarkan, yaqinroq borib, qo‘lidagi asarlarni qo‘liga oldi.

– Chexovni o‘qiyapsanmi? Yaxshi yozadi, – deb qo‘lidagini kattaroq yashikning ustiga tashladi.

Qodir aka biroz qizarinib, tasdiq ma’nosida boshini qimirlatdi.

– Yashikni ol!

– ...

– Ko‘tarib ketolsang, hammasi seniki. Agar tomdan tushguncha pastga qo‘ysang, otangning oldiga boraman… – dedi dadam jiddiy qiyofada.

Qodir akaning ko‘zlari yonib ketdi. Dadam “Otangning oldiga boraman”, degani uchun qo‘rqib ketdi, shekilli... U men o‘ylagan o‘g‘rining yarmicha ham kelmasdi. Qiltiriq. Novcharoq odam. Yashikni ko‘tarayotganda beli sinib ketadi, deb o‘yladim. Bu voqea ayniqsa men uchun tekin tomosha bo‘layotgandi.

Lekin Qodir aka kutilmaganda yashikni dast ko‘tarib oldi-da, qo‘shni cherdakka o‘tib ketdi. Dadam uning chalkashib borayotgan oyoqlariga shunday bir nigoh bilan qaradi-ki…

Alamdan yig‘lab yuborishimga sal qoldi. Chunki dadam o‘g‘rini qo‘yib yuborgandi-da!

– O‘g‘rini qo‘yib yubordilar, – pastda xavotir olib turgan onamga to‘ng‘illadim.

Gapimni eshitib turgan dadam menga bir ola qarash qilgandi, qaytib og‘zimni ochmadim.

– Nima gap, dadasi? Kim ekan u?

Dadam biroz xayolga berilib, ko‘rpachaga cho‘kdilar.

– Qodir. Hamdam akaning o‘g‘li. Kitob jinnisi ekan. Bir yashik kitobni berib yubordim, endi bezovta qilmaydi, – deb kulib qo‘ydilar.

Hammamiz yotdik. Lekin mening uyqum kelmadi. Saharlikkacha ozgina vaqt qolgani uchun onam o‘choq boshiga ketdi.

– Zokirjon, Qodir akangiz o‘g‘ri emas. O‘g‘il bola chaqimchilik qilib, bunaqa gaplarni hammaga aytib yurmaydi, tushundingizmi?



Dadamning o‘sha so‘zlarini tushunganimga o‘n to‘rt yil bo‘ldi.

Yaqinda qishloqqa bordim. Ertalab onam uyg‘otdi.

– Dadang ta’ziyaga chiqib ketdi. Tur, sen ham mana bularni kiyib, Ma’muralarnikiga o‘t-da, xizmat qil, – dedi oyim. Yonimga bir to‘n bilan qalpoqni tashladi.

Kim qazo qilganiga tushunmay, onamga savol nazari bilan qaradim.

– Qodir malim o‘tibdi. Yuragi kasal ekan, shifoxonadan qaytaribdi deyishuvdi, oqshom uzilibdi.

Qodir akaning yoshi o‘ttiz uchda edi. O‘sha tomda kitob olayotganda tutib olgan yilimiz maktabni tugatib, o‘qishga kirgandi. Keyinchalik qishlog‘imizga kelib, til-adabiyotdan dars bera boshlagandi. Kasalmand ekanini eshitgandim-u, hali o‘lishiga ishongim kelmasdi.

Ta’ziyada odamlar marhumni yaxshi gaplar bilan eslashdi. Qodir akani chiqarib kelganimizdan so‘ng, uch-to‘rtta keksalar bilan hovli chetidagi chorpoyada o‘tirdim.

– Hamdamning uli o‘ladigan yigitlardan emasdi. Bunga ko‘z tegdi. Eshitishimcha, maktab bolalarining hammasi “Qodir malimning sinfiga o‘tamiz”, deb janjal qilisharkan, – deb Rahim bobo sovib qolgan choyini ho‘pladi.

– Kasalxonada ham oxirgi safar bir hafta yotibdi. Haftada o‘nta kitob o‘qib chiqibdi. Jiyan yomon ko‘p o‘qirdi, – deb ko‘ziga yosh oldi Nasim amaki.

Ochig‘i, bu gaplarning rost yoki yolg‘on ekanidan xabarim yo‘q.

Negadir xayolimdan pochasi shimarilgan, ozg‘in oyoqlari qaltirab, gavdasi u yoqdan bu yoqqa borib kelayotgan Qodir akaning qiyofasi ketmasdi…

Isomiddin PO‘LATOV



Oyina.uz portali o‘zbekning 100 ziyolisidan “Har bir inson hayoti davomida o‘qishi shart bo‘lgan 10 kitob” tavsiyasini berib bormoqda. Loyihaning 86-ishtirokchisi, xalqaro grossmeyster, FIDE Nomzodlar turniri g‘olibi Javohir Sindarov “Har bir inson hayoti davomida o‘qishi shart bo‘lgan 10 kitob” tavsiya qiladi:

1. **Xudoyberdi To‘xtaboyev**, “**Sariq devni minib**”
2. **Abdulla Qodiriy**, “**O‘tkan kunlar**”
3. **Muhammad Ali**, “**Ulug‘ saltanat**”
4. **Jeyms Klir**, “**Atom odatlar**”
5. **Uolter Tevis**, “**Qirolichaning yurishi**”
6. **Komil Sindarov**, “**Qimmatga tushgan xato**”

Tavsiya

7. **Erkin Vohidov asarlari**
8. **Pirimqul Qodirov**, “**Yulduzli tunlar**”
9. **Komil Sindarov**, “**Temuriylar kutubxonasi siri**”
10. **O‘tkir Xoshimov**, “**Ikki eshik orasi**”

Javohir Sindarov 2005-yilning 8-dekabrida Toshkent shahrida tug‘ilgan. **Yutuqlari:** Osiyo chempioni, maktab o‘quvchilari o‘rtasida 3 karra Jahon chempioni, Jahonning eng yosh xalqaro grossmeysteri (2018-yil), U16 Jahon shaxmat olimpiadasi g‘olibi (2018-yil), O‘zbekiston chempionati Oliy liga 1-o‘rin (2019-yil), O‘zbekiston chempionati Oliy liga 1-o‘rin (2021-yil), Jahon shaxmat olimpiadasi oltin medal sovrindori (2022-yil), Shaxmat bo‘yicha Jahon kubogi sohibi (2025-yil), FIDE Nomzodlar turniri g‘olibi (2026-yil).

Mukofotlari: “O'zbekiston iftixori” faxriy unvoni (2022-yil), “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi” faxriy unvoni (2025-yil), “Mehnat shuhrati” ordeni (2026-yil).

E’LON

“Hamal – Rizo” xususiy korxonasining yumaloq muhri yo‘qolganligi sababli haqiqiy emas deb topilsin.

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma № Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash’al mahallasi, Markaz-1

Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497